



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

I SHO'BA. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTI MASALALARI

TERMINLARDA MA'NO DARAJALANISHI HODISASI

Gulandom Mirxanova

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada terminlarning ma'no darajalanishi masalasi sotsiolingvistik va semasiologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Terminlar til tizimining faol qatlamlaridan biri sifatida ijtimoiy, fan-texnik hamda madaniy taraqqiyot jarayonida shakllanib, ularning semantik tuzilmasi ham doimo o'zgarib borishi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari terminologik tizimning barqarorligi, fan tarmoqlaridagi atamalarni standartlashtirish hamda ularni o'quv jarayonida samarali qo'llash imkoniyatlarini ochib beradi.

Tayanch so'zlar: termin, semantika, ma'no darajalanishi, denotatsiya, konnotatsiya, ko'pma'nolilik, semantik siljish, til tizimi.

Terminologiya maydonida ma'nodoshlikka yaqin va ayni paytda undan farqli yana bir semantik munosabat kuzatiladi. Bu munosabat ma'no darajalanishi, ma'no tarkibidagi belgining ortib yoki kamayib borishiga ko'ra tartiblanuvchi graduonimik qatorda namoyon bo'ladi. [Orifjonova Sh., 34] Graduonimik qatorni universal terminlar misolida kuzatamiz:

Troposfera → stratosfera → mezosfera → termosfera → ekzosfera

Ushbu terminlar qatori fazo sathlarining ketma-ketligi, ya'ni yer sathiga nisbatan masofasi ortib borishiga ko'ra tartiblanadi. Umuman olganda, ilmiy bilish izchil tartibga, hodisalarni eng kichik elementdan eng yirik birlikka qarata tartiblash asosida rivojlangan. Shunday ekan, graduonimik munosabatlar turli soha terminologiyasida eng ko'p uchraydigan aloqalardan biri bo'ladi: *millimetr → santimetr → metr → kilometr; atom → molekula → hujayra; milligram → gram → kilogram → sentner → tonna; arxey → proterozoy → paleozoy → mezozoy → kaynozoy* kabi daraja qatorlaridagi terminlar o'lchov birligining ortib borishi, obyekt hajmining ortishi, tarixiy davr ketma-ketligi asosida tartiblangan. [Dadaboyev H., 85–89]

O'zbek tilidagi terminlarni, shu jumladan tilga fors va arab tillaridan kirib kelgan universal hisoblanmaydigan terminlarni ham shu tamoyil asosida daraja qatorida tartiblash mumkin: *soat → kun → hafta → oy → fasl → chorak → yil*. Ushbu leksemalar umumiste'molda faol qo'llanishi bilan birga vaqt kesimlarini anglatuvchi terminlar ham. Ular orasidagi ma'no darajalanishi aynan shu vaqt kesimining ortib borishiga ko'ra tartiblanadi. *Misra → bayt/fard → qit'a → ruboiy → g'azal* daraja qatori esa she'riy matn hajmining ortib borishiga ko'ra tuzilgan, ushbu leksemalar sof terminologik xarakterga ega. Til birliklarini atovchi terminlarni ham aynan hajmning ortib borishiga ko'ra tartiblash mumkin: *tovush → bo'g'in → so'z → so'z birikmasi → gap → matn; Lug'at birligi → lug'at maqola → lug'at*. Ushbu terminlar nafaqat hajmning ortib borishi, balki mazmun yiriklashishini ham namoyon qiladi.

Demak, ilmiy bilishning ajralmas qismi bo'lgan terminologiyani qator semantik belgilari asosida daraja qatorida tartiblash mumkin. Bunday izchil munosabat universal terminlar orasida bo'lgani kabi milliy tilga xos bo'lgan terminlar orasida ham birdek kuzatiladi:

Hajm ortishiga ko'ra darajalanish:	<i>Hikoya → qissa → roman</i>
Iyerarxiya pog'onalariga ko'ra darajalanish:	<i>a'yon → vazir → vaziri a'zam → xon/amir</i>
Miqdor ortishiga ko'ra darajalanish:	<i>Paysa → pud → botmon</i>
Masofa (uzunlik) ortishiga ko'ra darajalanish:	<i>Olchin → gaz → chaqirim</i>

Terminlar o'quv lug'atini tuzishda aynan tarixiy metrologiya talqiniga katta ahamiyat berish shart. O'lchov birliklari va shu kabi iyerarxik terminlar talqinida albatta leksik birlikning graduonimik qatordagi o'rnini ko'rsatish lug'atning informativlik darajasini oshiradi, ularning

mohiyatini tizimli ravishda o'rganishga imkon beradi. Terminlarni graduonimik qatorda tartiblash uchun quyidagi belgilarni asos qilib olish mumkin:

1. Hajm belgisining ortishi;
2. Miqdor belgisining ortishi;
3. Masofa belgisining ortishi;
4. Davriy ketma-ketlik;
5. Qism-butun munosabatlari;
6. Iyerarxik pog'onadagi o'rin.

Fan turli hodisalarni qismlarga bo'lib analiz qilish, butunning qismlarini nomlab tartiblash tamoyilida harakatlanadi. Shunday ekan, har sohaning terminosistemi muayyan belgisiga ko'ra darajalanishi mumkin. Graduonimik qator tuzishda ma'no belgilariga tayaniladi, yuqorida ushbu belgilarning ayrimlari sanab o'tildi, ular sirasiga *tezlik/jadallik belgisi*, *masshtab belgisi* kabi ma'nolarni kiritib bu ro'yxatni davom ettira olamiz – terminlar daraja qatorini tuzishda semantik belgilar tizimini ochiq deb e'tirof etish lozim. Bu belgilarni ko'paytirish, har bir soha va fan tarmog'i terminlarining alohida ma'no belgilarini ajratib chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arntz R., Picht H., Mayer Felix. Einführung in die Terminologiearbeit. – Olms: Hildesheim, 2002.
2. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – T., 2019. – 118 b.
3. Гринев-Гриневич С. Терминоведение – М.: Академия, 2008. – С. 304
4. Галеева, А. Языковая реформа Ататюрка и её феноменальный успех / А. Р. Галеева. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2021. – № 1 (343). – С. 121-123.
5. Orifjonova Sh. O'zbek tilida leksik graduonimiya. Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – T., 1996.
6. Харлицкий С. Информационная структура термина: автореф. дисс. кан. фил. наук. М., 2003. – С. 264